

ONA TILI MASHG‘ULOTLARIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Shohista Xoldorova

Jizzax davlat pedagogika universiteti, katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada grafik organayzerlar va ulardan ona tili mashg‘ulotlarida samarali foydalanish bo‘yicha nazariya va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: grafik organayzer, BBB texnologiyasi, klaster, tushunchalar tahlili, toifalash jadvali, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar.

Ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, o‘qituvchi muayyan mavzuni o‘qitishda uning oson, to‘liq o‘zlashtirilishiga imkon beruvchi didaktik vositalar, texnologiyalar, turli xil jadval ko‘rinishidagi metod turlaridan samarali foydalangan taqdirdagina dars samaradorligiga erishadi. Shuningdek, o‘quv materiallari, mavzulari o‘zi aloqador bo‘lgan fanning eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassam qilishi nihoyatda zarur. Buning uchun o‘qituvchidan ta’limga yangicha yondashish, rejalashtirish ishlarini olib borish, innovatsiyalarni tatbiq etish talab qilinadi.

Grafik organayzer bu-o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini anglagan holda uni amaliyotda qo‘llab jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar mavzu va masala mohiyatini og‘zaki bayon yoki yozma matn ko‘rinishida emas, balki asosiy g‘oya, tayanch tushuncha, muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

Grafik organayzerlar – o‘quv jarayonida qo‘ylgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmuyi. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor, to‘ldirilgan holda qo‘llasa, vosita vazifasini, o‘quvchilarining mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi [2.122-b].

Grafik organayzerlarning bir qator shakllari mavjud bo‘lib, quyida ulardan foydalanish bo‘yicha fikr yuritamiz. Ma’lumki, grafik tashkil etuvchilarga “Insert”usuli, “Toifali jadval”, “Tushunchalar jadvali”, “Konseptual jadval”, “BBB”usuli, “Klaster”sxemasi, “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”, “SWOT-tahlil jadvali”, sxema va diagrammalar, “Baliq skeleti” kabilar kiradi. Ushbu organayzerlardan muktab hamda oliy o‘quv yurtlari dars jarayonlarida bemalol foydalansa bo‘ladi. Albatta, ushbu organayzerlar dars samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqishiga xizmat qiladi.

“BBB” texnologiyasi

Mazkur pedagogik texnologiyaning eng muhim afzalligi shundan iboratki, bunda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari, ya’ni mavzu yuzasidan yana nimalarni bilishni xohlashlari o‘rganiladi va yangi mavzu bayonida aynan shu jihatlarga e’tibor qaratadi. Shuningdek, loyihaning uchinchi bosqichida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilimlar ham aniqlanadi. Bu texnologiyadan o‘qituvchi darsning istalgan qismida, ya’ni uyga vazifani tekshirishda, yangi mavzuni boshlashdan avval, hamda mavzuni mustahkamlash bosqichlarida foydalanishi mumkindir.

Masalan, sifat so‘z turkumini o‘tish oldidan qo‘llash mumkin.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Sifatlar predmetning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladi.	Sifatning boshqa belgi bildiruvchi so‘zlardan farqlarini.	Sifat ba’zan gapda fe’lga ham bog‘lanib, uning belgisini ham ifodalashi mumkin. Masalan, yaxshi ishladi.

KLASTER

Grafik organayzerlar ichida eng keng tarqalgan va foydalanish qulay bo‘lgan metodlardan biri hisoblanadi. “Klaster” grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni o‘quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarini topish imkoniyatini yaratadi.

Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rivoja qilish talab etiladi [3.27.]

Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, uni qog‘ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o‘ylab o‘tirmay, shunchaki yozib boring!


Yozuvning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang!

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to‘xtamang! Agar ma’lum muddat o‘lay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsating!

So‘z turkumlari va uning ma’no turlari,xususiyatlari mavzusini o‘rganish jarayonida “Klaster” usulidan foydalanish yaxshi natija beradi.Ayniqsa,mavzuni takrorlash,mustahkamlash bosqichlarida qo‘l keladi.Ushbu shakllarning markaziy qismiga kalit so‘z yoziladi hamda unga yuqoridagi talablar bo‘yicha tarmoqlar chiqarilib izohlanadi.Zarur hollarda tarmoqlarni yana mayda tarmoqchalarga ajratish ham mumkin bo‘ladi.

Masalan,



“TUSHUNCHALAR TAHLILI”

Mazkur grafik organayzerdan matn va lug‘atlar bilan ishlash mavzularida keng foydalanish mumkin.Bunda “Tushunchalar” nomli birinchi ustuniga mumtoz matnlardagi eski turkiy tilga xos bo‘lgan so‘zlar yoki arxaiz va istorizmlar keltiriladi. Ikkinci va uchinchini ustunga o‘quvchilar tomonidan javob yoziladi.Bunda tahlil qilinayotgan matnni o‘zini ham havola qilish kerak hisoblanadi,chunki izoh talab qiladigan so‘zning mazmunini misralarda kelish o‘rniga ko‘ra topish qulaylik tug‘diradi.

Ishqing g‘amida **diydayi giryonima** rahm et,
Hajring tunida **nolayi afg‘onima** rahm et.
Javring chekibon joni hazin chiqqoli yetdi,
Ey jonu jahon, joning uchun jonima rahm et.[4.b-48]

“TUSHUNCHALAR TAHLILI”

Tushunchalar	Izoh	Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi sinonimlari
Tushunchalar	???	???
diydayi giryonim	Yig‘lagan, mo‘l-ko‘l ko‘z yoshi to‘kkan ko‘z.	Diyda-ko‘z, giryon-yig‘lovchi
nolayi afg‘onim	-	

“TOIFALASH” GRAFIK ORGANAYZERI

Grafik organayzer o‘quvchi (talaba)larni o‘rganilayotgan mavzuning muhim xususiyat, jihatlarini aniqlash, ma’lumotlarni umumlashtirishga o‘rgatadi.

Uni qo‘llashda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko‘nikmalari shakllanadi.

Grafik organayzerni qo‘llashda o‘quvchilar quyidagilarga e’tiborni qaratadi:

Muhim xususiyat (toifa)larni yoritishga nisbatan yagona talab qo‘yilmaydi

Guruhlarga bir xil topshiriq berilganda bir guruhnning yechimi ikkinchi guruhnning yechimidan farqlanishi mumkin

O‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlar haqida ma’lumot berish mumkin emas, muhim xususiyatlarni izlash jarayoni ham ularning o‘zlari tomonidan amalga oshirilishi shart

!

!

!

1. O‘qituvchi muhim xususiyatlari belgilanishi lozim bo‘lgan mavzu (masala yoki muammo)ni aniqlab, o‘quvchi (talaba)larni kichik guruhlarga ajratadi;
2. O‘quvchilar tanlangan mavzu (masala, muammo) hamda “Toifalash” grafik organayzerini qo‘llash shartlari bilan tanishtiriladi;
3. Kichik guruhlarga ma’lum topshiriqlar beriladi;
4. Kichik guruhlar topshiriqnini bajaradi (mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlarni aniqlaydi, ularni jadval yordamida ifodalaydi);
5. Kichik guruhlar o‘z yechimlarini jamoa e’tiboriga taqdim etadi;
6. Jamoa tomonidan kichik guruhlarning ishlari muhokama qilinadi;

Mazkur jadval o‘quvchilar tomonidan taxminan quyidagicha to‘ldiriladi:

Sifat	Nazariy ma’lumot	Misol:
Asliy sifat	Asliy sifat predmetning turg‘un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi	Qizil atirgullarni uzdim.
Nisbiy sifat
Sifatlarning otlashuvi
Otdan yasalgan sifatlar

“CHALKASHTIRILGAN MANTIQIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI”

Mazkur metod mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan samarali metodlardan hisoblanib, o‘quvchini mustaqil fikr yuritishga, to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi. So‘z turkumlari va ularning ma’no turlari o‘tib bo‘lingach, mavzuni mustahkamlash uchun ushbu metodni qo‘llash o‘rinli. Buning uchun o‘qituvchi tomonidan turli ma’nodagi so‘zlar chalkashtirilgan holda yozib qo‘yiladi. So‘ngra o‘quvchilardan mazkur so‘zlarni qaysi ma’no guruhiiga kirishiga qarab, jadvalga mos raqamlarni qo‘yib chiqadi. Bu quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- | | |
|-------------|----------------|
| 1.go‘zal | 11.xurliqo |
| 2.muattar | 12.majnunsifat |
| 3.barvasta | 13.toza |
| 4. nordon | 14.anvoyi |
| 5.gigant | 15.adirdagi |
| 6.buyuk | 16.qishki |
| 7.qirmizi | 17.yo‘l-yo‘l |
| 8.ol | 18.safsar |
| 9.badbo‘y | 19.dumaloq |
| 10.sershira | 20. achimsiq |

Xususiyat	hajm-o'lchov	makon-zamon	Rang-tus,	maza-ta'm	hid sifatlari
1.....	19....	16....	18...	4...	2....

Dars mashg'ulotlarida yuqoridagi kabi jadvalli topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarda jarayonga bo'lgan qiziqishni uyg'otish bilan bir qatorda, darsni samarali bo'lishini kafolatlaydi. Shuningdek grafik organayzerlarni guruqlar o'rtaсидаги musobaqa o'yinlari tarzida tashkil etish yuqori mahsuldorlikka erishishga poydevor vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.A.G'ulomov va boshqalar.Ona tili o'qitish metodikasi.Darslik.Toshkent:2012.B.380.
- 2.Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.Uslubiy qo'llanma.T.,2013. B. -122.
- 3.Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 27 bet.
- 4.Мұхаммад Ризо Мироб Эрниёзбек уғли Огахий девон VI жилдлик I жилд.- Т:1971.бет.550